

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.A.Abduhamidova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov</b>	
Yerqalampir o'simligi bargalri efir moyining kimyoviy tarkibini o'rganish .....	5
<b>P.K.Turdalieva, S.M.Qosimova</b>	
Farg'ona xududida o'sadigan <i>Taraxacum officinale</i> Wigg. s.L. o'simligi tarkibida fenol birikmalari va bioelementlar miqdorini o'rganish.....	9
<b>V.M.Nosirova V.U.Xo'jayev</b>	
Asperugo procumbens o'simligi yer ustki qismining kul miqdori hamda makro va mikroelementlari tahlili .....	15
<b>D.Sh.Shavkatova</b>	
Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga qarshi kuchi .....	19
<b>D.G'.Urmonov, A.K.Salman, I.J.Jalolov A.A.Ibragimov</b>	
Limonium otolepis yer ustki qismi geksan fraksiyasi gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili .....	29
<b>M.Y.Ismoilov, M.Sh.Ermatova</b>	
FNQIZ ishqoriy chiqindilar tarkibini tahlil qilish .....	33
<b>G.K.Najmitdinova, D.A.Shodihev, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Mahalliy amarant navlaridagi biologik faol bo'yovchi moddalar miqdorini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari.....	44
<b>M.R.Murtozaqulov, Y.S.Fayzullayev, S.X.Botirov, D.J.Bekchanov, M.G.Muhamediyev</b>	
Tabiiy gazlarning nordon gazlardan tozalashda ishlatalgan metildietanolamin tarkibidagi termik barqaror tuzlarni ajratib olish .....	49
<b>M.I.Karabayeva, D.S.Salixanova, S.R.Mirsalimova</b>	
Temir asosida metall-organik adsorbentlar olishning samarali usullari .....	55
<b>N.N.Dexkanova, G.V.Tollibaeva</b>	
Uglerod oksisulfid molekulalarining nax seolitiga adsorbsiyasini mikrokalorimetrik.....	60
<b>D.A.Shodihev, G.K.Najmitdinova, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Yangi amarant navlaridagi biologik faol moddalar va kimyoviy elementlarni o'rganish va maxsus oziq-ovqat qo'shimchasini yaratish istiqbollari .....	66
<b>I.R.Askarov, O.Sh.Abdulloev M.M.Kholmatova</b>	
Chemical composition and medicinal properties of fish and fish bones .....	72
<b>A.P.Xujakulov, I.R.Asqarov, A.X.Islomov</b>	
Yashil no'xat urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	76
<b>H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov</b>	
Phlomoides nuda o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari .....	80
<b>Z.Q.Axmmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov</b>	
Study of antioxidant activity of a mixture prepared from Tribulus macropterus, Taraxacum officinale and inula helenium .....	85

## BIOLOGIYA

<b>B.M.Sheraliyev, S.Y.G'ułomov, I.I.Zokirov</b>	
Kumushrang tobonbaliq <i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782) dagi bosh deformatsiyasining birinchi qaydi.....	89
<b>M.A.Axmadjonova, G.M.Zokirova</b>	
Fabaceae oilasi vakillarida tarqalgan <i>Sitona cylindricollis</i> (Fahraeus, 1840) ning morphologiyasi va bioekologiyasi.....	96
<b>M.M.Teshajonova, G.M.Zokirova</b>	
Tibbiyot oliygohi talabalariga gistologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari .....	101
<b>I.A.Abdurazakova, A.E.Zaynabiddinov</b>	
Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchangini O'zbekiston sharoitida har xil ozuqada parvarish qilish .....	112
<b>K.P.Buriyeva, G.S.Mirzaeva, N.Z.Arabova</b>	
Taxonomy and Morphology of species of the genus Hippodamia (Chevrolat in Dejean, 1837), common in the Kashkadarya region .....	120



УО'К:547.835.66.091.6.543.3

**UGLEROD OKSISULFID MOLEKULARINING NaX SEOLITIGA ADSORBSIYASINI  
MIKROKALORIMETRIK TAHLILI**

**МИКРОКАЛОРИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДСОРБЦИИ МОЛЕКУЛ УГЛЕРОДНОГО  
ОКСИСУЛЬФИДА НА ЦЕОЛИТЕ NaX**

**MICROCALORIMETRIC ANALYSIS OF THE ADSORPTION OF CARBON OXYSULFIDE  
MOLECULES ON NAX ZEOLITE**

**Dexkanova Nigora Namanjanovna<sup>1</sup> **

<sup>1</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti "Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasи katta o'qituvchichi,  
PhD.

**Tollibaeva Gulmira Voxid qizi<sup>2</sup> **

<sup>2</sup>Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti talabasi

**Annotasiya**

*Maqolada X tipidagi sintetik seolitlarning adsorbsion xususiyatlari, ion-molekulyar mexanizmlari va oltingugurtli birikmalarning adsorbsiyasi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlari yoritilgan. Tadqiqotda yuqori vakuumli mikrokalorimetrik qurilmadan foydalaniigan bo'lib, NaX seolitida uglerod oksisulfid molekulalarining adsorbsiyasiga oid to'liq termodinamik xususiyatlarni aniqlash usuli tavsiflangan. Shuningdek, NaX seolitida COS molekulalarining adsorbsiyasi differentialsial issiqligi pog'onasimon xarakterga ega ekani va har bir bosqichda hosil bo'ladijan (COS)<sub>n</sub>/Men<sup>+</sup> ion-molekulyar komplekslari stekiometrik nisbatlarga mos kelishi isbotlangan. NaX tipidagi seolitlarda uglerod oksisulfid molekulalarining adsorbsiya izotermalari mikrog'ovaklarning hajimi to'ynish nazariyasining matematik modellari asosida hisoblangan.*

**Аннотация**

*В статье рассмотрены адсорбционные свойства синтетических цеолитов типа X, их ионно-молекулярные механизмы, а также исследования адсорбции серосодержащих соединений, проведённые зарубежными и отечественными учёными. В работе использована высоковакуумная микрокалориметрическая установка для определения полных термодинамических характеристик адсорбции молекул окисульфида углерода (COS) на цеолите NaX. Доказано, что дифференциальная теплота адсорбции молекул COS на цеолите NaX имеет ступенчатый характер, а образующиеся на каждом этапе (COS)<sub>n</sub>/Men<sup>+</sup> ионно-молекулярные комплексы соответствуют стехиометрическим соотношениям. Изотермы адсорбции молекул окисульфида углерода на цеолитах типа NaX рассчитаны на основе математических моделей теории объемного насыщения микропор.*

**Abstract**

*This article examines the adsorption properties of synthetic zeolites of type X, their ion-molecular mechanisms, and research studies on the adsorption of sulfur-containing compounds conducted by foreign and local scientists. The study utilized a high-vacuum microcalorimetric setup to determine the complete thermodynamic characteristics of carbon oxysulfide (COS) molecule adsorption on NaX zeolite. It was demonstrated that the differential heat of COS molecule adsorption on NaX zeolite exhibits a stepwise pattern, with ion-molecular complexes (COS)<sub>n</sub>/Men<sup>+</sup> forming at each stage in accordance with stoichiometric ratios. The adsorption isotherms of carbon oxysulfide molecules on NaX-type zeolites were calculated using mathematical models based on the volume saturation theory of micropores.*

**Kalit so'zlar:** uglerod oksisulfid, NaX seoliti, differentialsial issiqlik, yuqori vakuumli mikrokalorimetrik qurilma

**Ключевые слова:** серокисль углерода, цеолит NaX, дифференциальная теплота, высоковакуумная микрокалориметрическая установка

**Key words:** carbon oxysulfide, NaX zeolite, differential heat, high-vacuum microcalorimetric setup

**KIRISH**

Bugungi kunda Respublikamizda mavjud sintetik mikrog'ovakli seolitlarning tarkibini aniqlash; seolitlarni ekspluatatsion xususiyatlarini aniqlash; kislotalik xossasini namoyon qiluvchi

## KIMYO

---

birikmalar seolit strukturasiga ta'sirini aniqlash; adsorbsiyalangan oltingugurtli gazlarning to'liq termodinamik xususiyatlari va termokinetik qonuniyatini o'rganish; sintetik seolitlarni uzoq muddat sorbtion xossalari saqlab qolish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmogda.

O'zbekistonda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, raqobatbardosh mahsulotlarning turlarini va hajmini kengayishiga olib kelmoqda. Jumladan, mikrog'ovakli adsorbentlar sintez qilish va ularning adsorbsion xususiyatlarini to'liq o'rganish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmogda. Bu borada mikrog'ovakli adsorbentlarni olish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Uglerod oksisulfid atmosferada uchraydigan muhim gazlardan biri bo'lib, uning manbalari tabiiy va antropogen jarayonlarga asoslangan. Uglerod oksisulfid molekulasi sulfid va karbonil guruuhlariga ega bo'lib, noyob fizik va kimyoviy xususiyatlari tufayli sanoatda hamda ekologiyada muhim o'rinn tutadi[1,2]. Ayniqsa, uning katalizatorlar va adsorbentlar bilan o'zaro ta'siri tadqiqotlar uchun dolzarb mavzudir. NaX seolitlari esa o'zining yuqori sirt maydoni, mikrog'ovakli tuzilmasi va ion almashish xususiyatlari bilan uglerod oksisulfid molekulalarini samarali adsorbsiya qilish qobiliyatiga ega material sifatida keng o'rganilmoqda[3,4]. Seolitlar, xususan, NaX kabi turdag'i materiallar, gazlarni ajratish va tozalash texnologiyalarida muhim rol o'ynaydi. NaX seolitining asosiy xususiyatlari uning birlamchi strukturasidan kelib chiqadi[5]. Ushbu seolitlar natriy ionlari va tetraedrik kislород atomlari orqali tashkil topgan uch o'lchovli g'ovakli tuzilishga ega. Uglerod oksisulfid molekulalarini NaX seolitiga adsorbsiya qilish jarayonini o'rganishda mikrokalorimetrik usullar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu usul adsorbsiya issiqligini aniqlash imkonini beradi[6,7].

Adabiyotlarda qayd etilishicha, uglerod oksisulfid molekulalari NaX seolitining yuzasida fizik va kimyoviy adsorbsiyaga uchraydi. Fizik adsorbsiya van-der-Vaals kuchlari orqali amalga oshirilsa, kimyoviy adsorbsiya kovalent bog'larning hosil bo'lishi bilan ifodalananadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, NaX seolitidagi kationlarning konsentratsiyasi va joylashuvি adsorbsiya jarayoniga sezilarli darajada ta'sir qiladi[8-11].

Mikrokalorimetrik tahlil adsorbsiya jarayonida issiqlik almashinuvini o'lchashga imkon beradi. Uglerod oksisulfid molekulalari NaX seolitiga adsorbsiyalanganda ajralib chiqadigan issiqlik orqali adsorbsiya jarayonining termodinamik xususiyatlarini baholash mumkin. Bunday tahlillar orqali seolitlarning sirt energiyasi va gaz molekulalari bilan o'zaro ta'sir kuchlarini o'rganish imkoniyati yaratiladi[12]. Ilmiy maqolalarda uglerod oksisulfid molekulalarining seolitlarga adsorbsiyasi bo'yicha turli sharoitlarda olib borilgan eksperimental tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar mikrokalorimetrik tahlil usuli yordamida NaX seolitining adsorbsion quvvatini aniq ko'rsatib beradigan natijalarni taqdim etadi. Masalan, uglerod oksisulfid molekulasing NaX seolitidagi adsorbsiyasi davomida energiya profillari va issiqlik o'zgarishlari tahlil qilingan[13-15].


NaX seolitining yuqori adsorbsiya qobiliyati uning sanoat jarayonlarida, xususan, gazlarni tozalash va ajratish texnologiyalarida keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi[16]. Uglerod oksisulfid molekulalarining havodagi kontsentratsiyasini kamaytirish va chiqindi gazlarni utilizatsiya qilishda NaX seolitidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi[17]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, NaX seolitlarining ion tarkibini o'zgartirish orqali uning adsorbsion xususiyatlarini optimallashtirish mumkin[18].

Uglerod oksisulfid molekulalarini NaX seolitiga adsorbsiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning murakkab termodinamik va kinetik xususiyatlarini yoritib beradi[19-22]. Mikrokalorimetrik tahlil esa adsorbsiya jarayonini chuqurroq o'rganish va seolit materiallarini yanada samarali ishlash imkonini beradi[23]. NaX seolitlarining yuqori samaradorligi va ekologik tozaligi ushbu materialni sanoat va ekologik muammolarni hal qilishda istiqbolli vosita sifatida qarashga asos yaratadi[24].

### NATIJALAR VA TAHLIL

Adsorbsiya differensial issiqliklarini aniqlashning ikkita asosiy usuli mavjud: kalorimetrik va izosterik. Ushbu usullardan biri izotermalarga nisbatan Klay'erон-Klaузиус tenglamasini qo'llashdan iborat bo'lib, boshqa usul esa o'zi bilan birga issiqliknı bevosita kalorimetrik aniqlashni namoyon qiladi. Adsorbsiya izotermalari va differensial issiqliklarni o'lchash uchun universal yuqori vakuumli adsorbsion uskuna va unga ulangan Tian-Kalg've DAK-1-1A turidagi differensial mikrokalorimetri

sistemadan foydalanildi. Ushbu uskuna adsorbatni gaz-hajmli kabi hajmli-suyuqlik usullarida ham taqsimlashni amalga oshirish imkonini beradi. Adsorbat tayyor kalibrlangan mikroka'iyallarning 0,095 mm<sup>2</sup> kesimida taqsimlanadi, bunda suyuqlik darajasini V-630 katetometri yordamida 0,01 mm aniqlikda o'lchanadi. Ka'illyar devorlarida bug' kondensatsiyasini oldini olish maqsadida bug' haroratini ka'illyardagi suyuqlik haroratidan bir munkha yuqoriqoq darajada elektrisitgich orqali ushlab turildi. Yuqoridagi katetometr yordamida va huddi o'sha aniqlikda 12 mm ichki diametriga ega manometrda simob darjasini o'lchanadi. Yuqori bosimli to'yigan bug'ga ega adsorbat molekulalari esa mahsus o'rnatilgan shishasimon ballonda amalga oshirildi. Kichik muvozanatlil bosimlarni o'lhash maqsadida (Mak-Leod manometri o'rniqa) Baratron B-627 membranali manometrdan foydalanildi. Ushbu manometr Mak-Leod manometriga qaraganda suvning kichik muvozanatlil bosimlarini yanada aniqroq o'lhash imkonini beradi. Ma'lumki, Mak-Leod manometri bosimni 10<sup>-4</sup> mm.sim.ust. dan 10<sup>-1</sup> mm.sim.ust. gacha o'lchaydi. Uglerod oksisulfid molekulalari o'lchami 5 Å dan kichik bo'lgani va X ti'idagi seolitlarning su'erbo'shliqdagi kirish o'lchami 13 Å ni tashkil qilganligi sababli, adsorbat molekulalari su'erbo'shliqqa adsorbsiyalanadi. Bunda uglerod oksisulfid molekulalari o'lchami kichikligi hisobiga adsorbsiyalanishi holatini tavsiflash lozim. Sintetik NaX seolitida uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiyasining dastlabki to'yinshlarida izotermasi  $In = -9,84$ , nisbiy bosimda 0,6 mm.sm.ust.da, atmosfera bosimi 0,00078 ini, adsorbsiya miqdori 0,08 mmol/g tashkil qiladi. 1-rasmida 303 K da NaX seolitida uglerod oksisulfid adsorbsiya izotermasi seolitga yutilgan uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiya izotermasi  $In=-8,20$  ga yetganda, yutilgan miqdor 0,40 mmol/ni tashkil qiladi.



1-rasm. 303 K da NaX seolitida uglerod oksisulfid adsorbsiya izotermasi  $\Delta$ -ekspertment qiymat;  $\blacktriangle$ -MHTN tenglamasi orqali hisoblangan nuqtalar

## KIMYO


Bunda 0,4 mmol/g uglerod oksisulfid molekulasi seolit matrisasining  $S_{II}$  qismiga kuchli adsorbsiyalaradi. NaX seolitiga yutilgan 4,16 mmol/g uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiya izotermasi  $In=-3,0$  ga yetgunga qadar adsorbsiya izoterma grafigi kichik o'sishi bilan boradi. Dastlab kationlar bilan uglerod oksisulfid kuchsiz bog'lar hisobiga molekulyar monokom'lekslarni ( $Na(COS)$ ) shakllantiradi. NaX seolitiga uglerod oksisulfid adsorbsiya izotermasi mikrog'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasining uch xadli tenglamasi asosida hisoblab to'ilgan

$$a = 3.87 \text{ ex'}[-(A/15.76)^3] + 6.32 \text{ ex'}[-(A/6.32)^3]$$

bu yerda:  $a$ -mikrog'ovaklardagi adsorbsiya mmol/g,  $A=RTIn(^{10}/')$  kJ/mol dagi adsorbsiya energiyasi.

2-rasmida uglerod oksisulfid molekulalarining NaX seolitiga adsorbsiyasi differentsiyal issiqligining o'zgarib borish grafigi berilgan. Issiqlik kondensatsiya ( $\Delta H_v$ ) uzuq chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

Boshlang'ich to'yinislarda uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiya miqdori 0,02 mmol/gni tashkil qiladi, differentsiyal issiqlik esa 55,63 kJ/molni tashkil qiladi.



**2-rasm.** 303 K haroratda NaX seolitiga uglerod oksisulfid adsorbsiya differentsiyal issiqligi grafigi. Gorizontal kesik chiziqlar -uglerod oksisulfid molekulalarining 303K haroratdagagi issiqlik kondensasiyasi.


Adsorbsiya issiqligining yuqori bo'lishi seolit su'erbo'shliqlarida sorbtsiyalangan kationlar ko' bo'lishi va uglerod oksisulfid molekulalarning soni kamligi tufayli metall kationlariga taqsimlanishida va muvozanat qaror to'ishiga ko'roq vaqt sarflanadi. Shu sababli ham seolit strukturasini hosil qiladigan kremniy va alyuminiy oksidlari devorlariga sorbat ta'sirida ham energiya yuqori bo'lishi bilan izohlash mumkin. Adsorbsiya 0,25 mmol/g ga yetganda differentsiyal issiqlik 49,38 kJ/mol ga teng bo'ladi. 0,5 mmol/g uglerod oksisulfid molekulalari sorbtviyalanishi uchun 5,8 kJ/mol energiya sarflanadi. Bu energiya sarflanishida differentsiyal issiqlik 49,38 kJ/moldan 43,25 kJ/molgacha kamayadi. Bular 0,77 mmoldan 4,37 mmol/g oraligida borib, adsorbatning issiqlik kondensasiyasi qiymatidan ~2,0 barovar yuqori bo'ladi. 5 mmol/g dan keyingi adsorbsiyalangan uglerod oksisulfid molekulalarining adsorbsiya differentsiyal issiqligi keskin tushib ketadi va kondensasiya issiqligiga tenglashadi.

Adsorbsiya 0,77 mmol/g ga etganda adsorbsiya issiqligida biroz 'asayish kuzatiladi. Bunda differentsiyal issiqlik 43,25 kJ/mol ga teng bo'ladi. Keyingi uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiyasida differentsiyal issiqlikda biroz o'sishi kuzatiladi. Bunga seolitda sorbtviyalangan uglerod oksisulfid  $S_{II}$  da bitta kationga sorbtviyalanib, keyingi adsorbsiya markaziga adsorbsiyalayanotganligi sababli issiqlik ko'tarilishi kuzatiladi.

1,5 mmol/gdan keyingi yutilgan COS molekulalari differentsiyal issiqligi 38,46 kJ/molga teng bo'ldi va adsorbsiya miqdori 2,90 mmol/gni tashkil etdi. 3 ta  $COS/Na^+$  va 1ta  $COS/H^+$  kom'lekslari

joylashuvi tetraedr shaklida bo'lib, bunday klasterlar su'erbo'shliqlarning deyarli barcha bo'sh joylarini to'ldiradi. Yakuniy bosqichda differentsiyal issiqlikning qisman ko'tarilishi kuzatildi va 303 K da COS kondensasiya issiqligi tomon keskin tushib ketdi.

2,75 mmol/g uglerod oksisulfid molekulalarining adsorbsiyalanihi uchun adsorbsiya miqdori 2,90 mmol/g va 5,65 mmol/g oraliqlarda boradi. Bunda 1 atmosfera bosim uchun jarayon yakunlanayotganligidan dalolat beradi. Seolitning  $S_I$  va  $S_{III}$  bo'shliqlarda joylashgan kationlar su'erbo'shliq tomonga siljishi bilan izohlanadi. Adsorbsiya issiqligining yuqori bo'lishi  $S_I$  va  $S_{III}$  bo'shliqlarning su'erbo'shliq yaqinida joylashganligi hamda ulardag'i kationlar migrasiyasi hisobiga bo'ladi. Kationlar asosan kirish oynalari yaqin qimida bo'ladi. SHu sababli differentsiyal issiqlik juda yuqori bo'lmaydi. NaX seolitining bitta su'erbo'shliqda jami 5,65 mmol/g uglerod oksisulfid molekulasi adsorbsiya qiladi.



**3-rasm.** 303 K da NaX seolitida uglerod oksisulfidning adsorbsiya differentsiyal entro'iyasi. Suyuqliklarda uglerod oksisulfid entro'iyasi 0 deb xisoblangan. Gorizontal uzuq chiziqlar-molar integral entro'iya.

3-rasmda COS molekulalarining adsorbat su'erbo'shliqlariga adsorbsiya differentsiyal entro'iyasi keltirilgan. NaX seolitiga uglerod oksisulfid adsorbsiyasi differentsiyal issiqligi va izoterma qiymatlaridan foydalanib, differentsiyal entro'iyani hisoblashda Gibbs-Gelmgols tenglamasi formulasidan foydalanildi.

$$\Delta S_d = \frac{\Delta H - \Delta G}{T} = \frac{-(Q_d - \lambda) + A}{T}$$

$\lambda$ -issiqlik kondensasiyasi,  $\Delta H$  i  $\Delta G$ -ental'iya va erkin energiya o'zgarishi,  $T$  – tem'eratura,  $Q_d$  – o'rtacha differentsiyal issiqlik.

Olingen natijalarga asoslangan holda adsorbsiya energiyasidan differentsiyal entro'iya qiymatlari hisoblab to'ldi. Adsorbsiyalangan COS molekulalarining seolit su'erbo'shliqlaridagi holati entro'iya qiymatlarining minimum va maksimum qiymatlari yordamida aniqlandi. Bu esa uglerod oksisulfid molekulalarining NaX seoliti g'ovaklaridagi holatini, yaoni adsorbat molekulalari harakatchan yoki qo'g'zalmagan holatda ekanligini ko'rsatadi.

Differensiyal entro'iya qiymati jarayon boshlanishida -30,9 J/mol\*K ga teng bo'ldi. Adsorbsiya miqdori 0,54 mmol/g ga yetganda entro'iya qiymati -36,72 J/mol\*K ni ko'rsatdi, bunda adsorbsiya qiymati  $a=0,54$  COS/Na<sup>+</sup> ni tashkil etadi. Keyingi bosqichda adsorbsiya entro'iyasida qisman o'sish kuzatildi, bu esa COS molekulalari biroz to'lqinsimon ko'rinishda minimum va maksimum chiziqlar hosil qildi. Adsorbsiya qiymati 2,20 mmol/g hamda 50,72 mmol/ga oraliqlarida o'rtacha integral entro'iya qiymatidan 'astda boradi. O'rtacha integral entro'iya -38,60 J/mol\*K ni tashkil etadi. Adsorbsiyalangan molekulalar miqdori 5,5 mmol/g dan ortganda keyin uglerod oksisulfid molekulalari asta sekinklik bilan harakatchan xolatga o'tadi.

Adsorbsiya differentsiyal entro'iyasi grafigi qiymatlaridan maolumki, uglerod oksisulfid molekulalarining jami adsorbsiya miqdorining 95% foizi harakati cheklangan bo'ladi. SHu sababli

## KIMYO

uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiyasi bo'yicha olib borilgan kalorimetrik tadqiqot ishida NaX seolit juda muhim sorbent sifatida tavsif qilish mumkin.

## XULOSA

Sintetik NaX seolitiga uglerod oksisulfid izotermasi uch hadli mikrog'ovaklarning hajmiy to'yinish nazariyasi tenglamasi yordamida tavsiflandi. NaX seolitiga uglerod oksisulfid molekulalari adsorbsiya differentsial issiqligi to'lqinsimon 'og'onali ko'rinishda boradi. Seolit matrisasida sorbtsiyalangan uglerod oksisulfid molekulalarining 95% ga yaqini biroz harakatsiz holatda bo'lib, o'rtacha integral differentsial entro'lya -38,66 J/mol\*K ga teng bo'ladi. Adsorbat molekulalarining Na<sup>+</sup> kationlari bilan (COS)<sub>n</sub>/Me<sup>n+</sup> ion-molekulyar kom'lekslar hosil qilganda NaX seolitlarida COS molekulalari adsorbsiya entro'iyasi standart holat entro'lya qiyamatlaridan ancha 'astda bo'lishi hamda COS molekulalari NaX seoliti matrisasiga lokalizasiyalanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maesen, T.; Marcus, B. Charter 1 The zeolite scene—An overview. In Studies in Surface Science and Catalysis; 2020; Volume 137; pp 137.
2. Kunkeler, R. J.; Downing, R. S.; Bekkum, H. V. Charter 21 The use of bulk molecules as probes for investigating the contributions of the external and internal pore-wall activities of zeolite catalysts. In Studies in Surface Science and Catalysis; Elsevier, 2021; Volume 137; pp 987.
3. Barrer, R. M. "Zeolites and Clay Minerals as Sorbents and Molecular Sieves." Academic Press. 2023. Volume 9; pp 122.
4. Breck, D. W. "Zeolite Molecular Sieves: Structure, Chemistry, and Use." Wiley-Interscience. 2021. Volume 13; pp 22.
5. Wang, S., & Yang, Y. "Natural zeolites as effective adsorbents in water and wastewater treatment." Chemical Engineering Journal, 2019. Volume 7, pp. 11-24.
6. Ruthven, D. M. "Principles of Adsorption and Desorption processes." Wiley. Sun, L., & Yang, R. T. "The role of cations in the adsorption of COS on zeolites." Microporous and Mesoporous Materials, 2023. 62(2), pp. 133-141.
7. Denaer, J. F., & Baron, G. V. "Calorimetric study of adsorption on zeolites." Journal of Thermal Analysis and Calorimetry, 1997 Volume (3), 1035-1047.
8. Flanigen, E. M. "Zeolites and molecular sieves: an historical perspective." ACS Publications. 2021. Volume 17. pp 39-48.
9. Dexkanova N.N., Abduraxmonov E.B. "NaX seolitida metilmekaptan adsorbsiyasi kalorimetrik taxlili"// Qo'qon davlat 'edagogika instituti ilmiy axborotnomasi. 2022 yil №4-(8) 8-15b.
10. Dexkanova N.N., Abduraxmonov E.B., Rahmatkarieva F.G. "LiX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi"// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2022 yil №10 166-174 b.
11. Деканова Н.Н., Абдурахмонов Э.Б., Раҳматқариева Ф.Г. "Термодинамика адсорбции сероводорода на цеолите NaX" // Научный вестник Ферганского государственного университета. 2022 год, №4, С: 229-235.
12. Cheremisina, O. V. Thermodynamic characteristics of the hydrogen sulfide sorption process by ferromanganese materials / Cheremisina O. V., Ronomareva M. A., Bolotov V. A., Osirov A. S., Sitko A. V. // ACS Omega. – 2022. - 7 - p. 3007-3015.
13. Домуляжанов И.Х., Деканова Н.Н., Джамолиддинова Н.Б. "Воздействие загрязнения атмосферы на здоровье населения." Universum: химия и биология, 6-1 (96) (2022), С: 19-23.
14. Исмаилов М.Ю., Деканова Н.Н. "Получение и очистка нафтеновых кислот синтетическим методом." Universum: химия и биология, 2-1 (104) (2023), С: 54.
15. Breck, D. W. "Zeolite Molecular Sieves: Structure, Chemistry, and Use." John Wiley & Sons, 1974. №7 p. 307-315.
16. Rouquerol, F., Rouquerol, J., & Sing, K. S. W. "Adsorption by Powders and Porous Solids: Principles, Methodology and Applications." Academic Press, 1999. №2 p. 37-45.
17. Karge, H. G., & Weitkamp, J. (Eds.). "Adsorption and Diffusion in Nanoporous Materials." Springer, 1998. №11 p. 50-65.
18. Auerbach, S. M., Carrado, K. A., & Dutta, P. K. (Eds.). "Handbook of Zeolite Science and Technology." Marcel Dekker, 2003. №8 p. 73-85.
19. Barrer, R. M. "Hydrothermal Chemistry of Zeolites." Academic Press, 1982. №1 p. 57-63.
20. Yang, R. T. "Gas Separation by Adsorption Processes." Butterworth-Heinemann, 1987. №8 p. 22-35.
21. Ruthven, D. M. "Principles of Adsorption and Desorption Processes." John Wiley & Sons, 1984. №11 p. 87-93.
22. Cejka, J., Corma, A., & Zones, S. (Eds.). "Zeolites and Catalysis: Synthesis, Reactions and Applications." Wiley-VCH, 2010. №2 p. 17-25.
23. Weitkamp, J., & Puppe, L. (Eds.). "Catalysis and Zeolites: Fundamentals and Applications." Springer, 1999. №11 p. 37-42.
24. Szostak, R. "Molecular Sieves: Principles of Synthesis and Identification." Blackie Academic & Professional, 1998. №9 p. 66-78.